

**AHOLI FAROVONLIGIGA ISHSIZLIK DARAJASINING
TA'SIRINI O'RGANISHNING
NAZARIY ASOSLARI VA UNING IQTISODIY TAHLILI.**

Boliyev Mirzoxid Zuxriddin o'g'li

Tursunboyev Inoyatillo Safarali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Talabalari

***Annotatsiya.** Ma'lumki, ishsizlik asosiy iqtisodiy terminlardan biri bo'lib, u asosiy iqtisodiy muammolardan biri bo'lib ham hisoblanadi. Ushbu maqolada ishsizlik va uning aholi turmush darajasiga ta'siri, ishsizlik darajasini ma'lum davrlar miqyosida tasnifi va tahlili, uning sabab va oqibatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar.** Ishsizlik, ishchi kuchi, ishsizlar, aholi, aholi turmush darajasi, ishsizlik darajasi, mehnat zaxirasi, ishchi kuchi taklifi, ishchi kuchi talabi, texnika rivoji, ishsizlik muammosi, iqtisodiy rivojlanish, ishsizlikning tabiiy chegarasi, sog'lom iqtisodiyot, stat.uz, iqtisodiy faol aholi, vaqtinchalik cheklovlar.*

Kirish. Darhaqiqat, aholi farovonligiga bir qancha iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sir ko'rsatadi va bu omillardan biri iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ishsizlik va uning darajasidir. Ishsizlik bu, bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi hisoblanadi. Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi natijasida va uning sabablari ham turlicha namoyon bo'ladi. Ishsizlikning asosiy sabablari quyidagi hollar bo'lishi mumkin:

➤ Texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqarish kam mehnat talab bo'lib qoladi.

- Iqtisodiyotda yalpi talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ishchi kuchining bir qismi ortiqcha bo‘lib qoladi;
- Iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ishchi kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo‘lmay qoladi;
- Aholi ishchilarga nisbatan tez o‘sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik mavzusida gap borganda, asosan ishchi kuchi va ishsizlar o‘zaro bir-biridan farqlanadi. Bularga iqtisodiy ta’rif beradigan bo‘lsak, ishchi kuchi deganda, inson aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi bo‘lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi tushuniladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o‘zi emas yoki uning mehnati ham emas, balki uning qobiliyatidan iboratdir. Ishsizlar esa, ishlayotganlar bilan bir qatorda mamlakat ishchi kuchini tashkil qiluvchi aholi tarkibidir. Ishsizlar safiga, odatda, nafaqat turli sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shatilganlar, balki o‘z ixtiyoriga ko‘ra ishdan ketganlar va yangi ish topishga harakat qilayotgan shaxslar ham kiritilishini qayd etish lozim.

Aholi farovonlik darajasiga ishsizlikning ta’siri. Ishsizlik inson manfaatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo‘qotish ko‘p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, agar ishsizlik muammosi mavjud bo‘lmasa, aholi turmush darajasi ham yuqori bo‘ladi va bu mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Mamlakat miqyosida 3-5% darajasidagi ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holat (ya’ni, ishsizlikning tabiiy chegarasi) hisoblanadi. Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun aholi bandligini ta’minlash davlat dasturlari ishlab chiqiladi, korxonalar qurilib, yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi, xodimlarni yangi kasblarga o‘qitish, qayta tayyorlash ishlari amalga oshiriladi, bandlikka yordam jamg‘armasi tashkil

qilinadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlik darajasini pasaytirish borasida bir qancha tizimli ishlar va strategiyalar qo'llanadi.

Ishsizlik darajasi. Ishsizlik darajasi - ishsiz ishchi kuchining foizi. Bu ortda qolayotgan ko'rsatkich bo'lib, u odatda o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarni kutishga ko'ra ko'tariladi yoki tushadi. Iqtisodiyot yomon ahvolda va ish o'rinlari tanqis bo'lsa, ishsizlik darajasi oshishi kutilishi mumkin. Iqtisodiyot sog'lom sur'atlarda o'sganda va ish o'rinlari nisbatan ko'p bo'lsa, uning pasayishi kutilishi mumkin. Uning iqtisodiy hisoblanishi esa quyidagicha;

$$\text{Ishsizlik darajasi} = (\text{ishsizlar soni} / \text{ishchi kuchi soni}) * 100\%$$

Ishsizlik darajasi hisobi yuritilishining asosiy maqsadi, mamlakatda ishsizlik muammosini qisqartirish va muvozanatga keltirish tahlillarini amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida 2019-2022 - yillar oralig'idagi ishsizlik darajasi tahlili. Bu tahlilni amalga oshirish uchun avvalo, O'zbekiston Respublikasi statistika agentligining stat.uz sayti orqali yuqoridagi yillar kesimida iqtisodiy faol aholi soni va ishsizlar soni aniqlanadi, undan so'ng hisoblash ishlari olib boriladi. Bular quyidagi jadvalda o'z aksini topgan;

№	Yillar	Iqtisodiy faol aholi soni	Ishsizlar soni	Hisoblanish	Ishsizlik darajasi,(%)
1	2019	14876,4	1335,3	$(1335,3/14876,4) \times 100\%$	8,9
2	2020	14797,4	1561,0	$(1561,0/14797,4) \times 100\%$	10,5
3	2021	14980,7	1441,8	$(1441,8/14980,7) \times 100\%$	9,6
4	2022	15038,9	1332,7	$(1332,7/15038,9) \times 100\%$	8,8

So'nggi yillar kesimidagi ishsizlik darajasidan bilish mumkinki, ishsizlik darajasi barqaror darajada bo'lmaydi. Ya'ni, u har yili ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Buni aniqroq tushunish uchun shu ishsizlik darajalarini doiraviy diagrammada aks ettiraylik.



Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ketma-ket to'rt yillikda ishsizlik darajasi tafovutlari uncha yuqori bo'lmasada, ammo bu bandlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan, ya'ni, bandlik darajasi ham ishsizlik darajasiga nisbatan teskari proporsional ravishda o'zgargan;

2019	2020	2021	2022
68,1	66,0	67,0	67,2

Ishsizlik darajasining eng yuqori suratlari bu to'rt yillik uchun pandemiya COVID-19 davriga to'g'ri kelgan, chunki bu davrda pandemiyaga qaratilgan kuchaytirilgan tartibdagi karantin cheklovlarining joriy etilishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi korxonalar faoliyatining vaqtinchalik to'xtatilishi ishsizlik darajasining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. Keyinchalik bu cheklovlarning yumshatilishi yana ishsizlik darajasining pasayishiga olib keldi va hattoki, so'nggi yillarda ishsizlik darajasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Masalan, 2023-yil yakuniga ko'ra bu daraja 6,8% ni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 2.1% ga kamaygan. Bu ko'rsatkichlar shundan dalolat beradiki, mamlakatning asosiy maqsadi ishsizlik darajasini sezilarli qisqartirish va buning uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish sektorlarini kengaytirish, mavjud mutaxasislarni malakalarini oshirish borasida qo'shimcha

chora-tadbirlar o'tkazish va bir qancha maqsadli harakatlarni amalga oshirishdan iborat.

Xulosa. Ishsizlik darajasi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ya'ni, ishsizlik darajasi qancha past bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti ijobiy deb, va aksincha, ishsizlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti salbiy deb qaraladi. Aholi farovonligi va turmush darajalari ham ishsizlik darajalariga qarab tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmanov Q.X, Abdurahmanov X.X. Mehnat resurslarini boshqarish // Bandlik va ishsizlik. Mehnat munosabatlari. Mansurov S.M, Shodmonov E.I
2. Elizabeth Eylott. Mehnat huquqi // Ish haqi va mehnatga haq to'lash.
3. Wikipedia. Ishsizlik // Ishsizlik darajasi.
4. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi. Stat.uz sayti // Iqtisodiy faol aholi soni. Ishsizlar soni. Bandlik darajasi.
5. International scientific journal. Science and Innovation // Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini oshirish.
6. Peter Hartz, Hilarion G. Petzold. Wege aus der Arbeitslosigkeit // Ishsizlikdan yo'l. Hayot yangilanishidagi imkoniyatlar. Uzoq davr ishsizligiga qarshi kurash.